

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i B.Azizovning tumanda har bir mahallaning "O'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining ehtiyojidan kelib chiqib, mahallaning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish maqsadida mahallalar qoshida tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish yuzasidan qilingan ishlar to'g'risida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan

HISOBOTI

Assalomu alaykum hurmatli deputatlar, sessiya ishtirokchilari!

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlar yaratish davlatimizning eng ustuvor vazifalaridan biridir. Davlatimiz rahbari tomonidan joriy yilning o'zida tadbirkorlikni rivojlantirish va ularga keng imkoniyatlar yaratish uchun bir qancha qaror va farmoyishlar qabul qilindi.

Paxtachi tumanida jami 59 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lib, barcha mahallalar drayverlarga ajratilgan:

Jumladan

1. Qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha Burqut, Gulshan, Quvondiq, Mirzo Nodim, Mirzo Olim, Go'ro'g'li, Istiqbol mahallalari qishloq xo'jaligining issiqxona yo'nalishida faoliyat yuritib kelayotgan bo'lsa, Urganji, Mojoy, Gulobod, Yangiobod, Saroy, Obodon, Suluvqo'rg'on, Qaynarbuloq, Guliston, Fay, Qarnabota, Chashma, Nayman, Farovon Yo'ldoshobod, Tinchlik, Ukrash, Chorgo'sha, Shamsnazar, Do'ng, Urg'uch mahallalari baliqchilik va qoramolchilik yo'nalishida o'z daromad manbaiga ega hisoblanadi.

2. Shuningdek Taraqqiyot mahallasi qishloq xo'jaligining parrandachik yo'nalishi bo'yicha o'z daromad manbaiga ega.

3. Mirzo Ulug'bek, Bodoy, Jahonobod, Istiqlol, Toshko'prik, Bo'ston, Amir Temur mahallalari sanoatning savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish yo'nalishiga ixtisoslashgan bo'lib, doimiy daromadga ega bo'lib kelmoqda.

Birgina, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-55-sonli qarori bilan tumanimizga **55,814 mlrd. so‘m** miqdorida kredit mablag‘lari yo‘naltirildi. **Shundan:**

- | | |
|----------------------|---------------------------|
| 1. 1-sektorga | 14,287 mlrd. so‘m |
| 2. 2-sektorga | 13,422 mlrd. so‘m; |
| 3. 3-sektorga | 13,099 mlrd. so‘m; |
| 4. 4-sektorga | 15,006 mlrd. so‘m |

kredit mablag‘lari yo‘naltirildi.

Bugungi kunga qadar ushbu mablag‘larning **36,313 mlrd. so‘mi** tuman aholisiga tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish maqsadida hokim yordamchilarining tavsiyasiga ko‘ra tijorat banklari tomonidan ajratildi.

Ushbu mablag‘lar tadbirkorlikning turli yo‘nalishlarida jumladan, issiqxonachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyunchilik, tikuvchilik, kasanachilik, chorvachilik, xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va uy sharoitida o‘zini o‘zi band qilish uchun turli xildagi asbob-uskunalar uchun ajratildi. Mazkur kredit mablag‘lari ajratilishi evaziga joriy yilda **1934 nafar** fuqarolar uy sharoitida o‘zini o‘zi band qildi yoki bandligi ta‘minlandi.

Bundan tashqari, tumanimizdagi 59 ta mahalla fuqarolar yig‘inida “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan hamda bugungi kunda ishsiz bo‘lgan fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish Vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining aholining tadbirkorlikka jalb qilish mablag‘lari hisobidan subsidiyalar ajratish to‘g‘risida”gi **252-sonli** qarori ijrosi bo‘yicha jami **45 nafar** fuqaroga **216 mln 470 ming so‘mlik** turli xildagi asbob-uskunalar olib berildi. **Jumladan:**

- | | |
|----------------------------|-----------------------|
| - 1 nafar fuqaroga | sug‘orish uskunasi; |
| - 23 nafar fuqaroga | tikuv mashinasi; |
| - 3 nafar fuqaroga | pishiriq pechi; |
| - 16 nafar fuqaroga | motokultivator; |
| - 1 nafar fuqaroga | payvandlash uskunasi; |
| - 1 nafar fuqaroga | fotoapparat uskunasi; |

K-savdo bo‘yicha tumanimizga 2023-yilning bugungi davriga qadar jami **560 ta** bo‘sh yer maydonlarni aniqlab elektron savdoga chiqarish rejasi belgilangan bo‘lib, **8 oy davomida 250 ta** bo‘sh yer maydonlari savdoga chiqarildi va **250 ta** yer maydoni tanlov g‘oliblariga ko‘chma do‘konlar qurish uchun ajratib berildi.

Bundan tashqari Prezidentimizning PQ-20-sonli va PQ-373-sonli qarorlari doirasida **332,8 gektar** yer maydonlari **1098 nafar** kambag'al fuqarolarga ajratib berilishi natijasida **1098 ta** dehqon xo'jaliklari Davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-sonli qarori ijrosni ta'minlash maqsadida, joriy yil uchun **9132 nafar** fuqarolarni o'zini o'zi band qilish rejasi belgilangan bo'lib 8 oy davomida hokim yordamchilari tomonidan **7480 nafar** fuqarolarni o'zini o'zi band qilinishiga erishildi.

Joriy yilning **8 oyi davomida** ajratilgan kreditlar va hokim yordamchilari tomonidan joylarda aniqlangan noqonuniy tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va tuman Davlat soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda ishlash natijasida **59 ta** mahallada jami **677 ta** tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi. Shundan **189 ta** yuridik korxonalar va **488 ta** YaTT subyektlaridir.

Hurmatli deputatlar, sessiya ishtirokchilari mening hisobotim shulardan iborat edi hisobotim tugadi. E'tiborlaringiz uchun raxmat.

Bo'lim boshlig'i



B. Azizov